

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti rektori

J.M. Tuxtasimov

« 20 » 2024 yil



«MAQULLANDI»

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi OAK raisi

A.T. Yusupov

« 8 » 2024 yil



CHET TILI BO'YICHA MALAKAVIY IMTIXON  
DASTURI

Toshkent – 2024

Mazkur Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining  
2024 yil « 8 » 05 dagi 354/4 sonli qarori bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:** M.Irisqulov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
O.Yusupov - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
J.Yoqubov - filologiya fanlari doktori, professor  
Yu.Ismailov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
K.Muradkasimova - pedagogika fanlari doktori, dotsent  
T.Ismailov - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar:** G.Bakiyeva - filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU)  
A.Shermatov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (SamDChTI)

## **Mundarija**

Kirish.....	3
Xorijiy tillarda malaka imtihoni dasturining mazmuni.....	4
Xorijiy tillarda malaka imtihoniga qo‘yiladigan talablar.....	4
Malakaviy imtihon savollarining mazmuni va tartibi.....	7
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	8

## KIRISH

Mazkur Dastur Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqotlarini olib borayotgan izlanuvchilar uchun chet tili (ingliz, fransuz yoki nemis tili)dan malakaviy imtihon topshirish uchun 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-son qaroriga asosida tuzilgan.

Respublikamizda ta‘lim, fan va ilmiy tadqiqotlarga hukumat darajasida katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini biryo‘la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo‘nalishini rivojlantirish tarafdorimiz”<sup>1</sup>, deb ta‘kidlagan.

O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida o‘zgarib turuvchi raqobat muhiti va bozor sharoitlarini ilg‘ab olish, ularning mohiyati hamda qonuniyatlarini chuqur tahlil qilishda chet el tajribasidan foydalanish, ilg‘or ilmiy innovasion tajribalardan foydalanishda ingliz tilini mukammal bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish, uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillariga o‘qitish sifatini ta‘minlash, chet tillarida erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu yo‘nalishdagi o‘quv dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash hozirgi paytda davr talabiga aylanib bormoqda.

Ushbu dastur oliy ta‘limdan keyingi ta‘limda ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, zamonaviy mutaxassislarni kasbiy faoliyati va kundalik hayotida xorijiy tildan foydalanish uchun uni o‘zlashtirishga qaratilgan. Oliy ta‘limdan keyingi ta‘limda bo‘lgan bosqichlarda orttirilgan bilimlarga tayangan holda oliy ta‘lim muassasasida xorijiy tilni yanada chuqurroq egallash va tanlangan kasbiga yo‘naltirilgan holatda o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi.

Mazkur fan tayanch doktorant (PhD), mustaqil izlanuvchilar (PhD) uchun xorijiy tillarni kerakli darajada o‘rganishi yordamida ixtisoslik fanlarining xorijiy manbalardan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish, kelgusidagi kasbiy faoliyatida jahondagi ilg‘or texnika va texnologiyalar, ilmiy yutuqlar va soha yangiliklaridan bevosita xabardor bo‘lishiga imkon yaratadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. [//http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020](http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020).

## **XORIJIY TILLARDA MALAKA IMTIHONI DASTURINING MAZMUNI**

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimida xorijiy tillarni o‘rganish standart asosida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitishning maqsadi - tinglovchilarning turli tillarda, kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat yuritishi uchun xorijiy tillardagi kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishdir. **Chet tilida muloqot qobiliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

**Lingvistik kompetensiya** o‘rganilayotgan til sohiblari bilan muloqot qilish uchun til materiallari (fonetika, leksika, grammatika)ni yetarli darajada bilish va nutq faoliyati turlari (tinglab-tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv)da qo‘llay bilishni nazarda tutadi.

**Ijtimoiy-lingvistik kompetensiya** so‘zlovchining biron bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi.

**Ijtimoiy kompetensiya** - ijtimoiy-lingvistik va sosio-madaniy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. U hozirgi ko‘p madaniyatli dunyoda ta‘lim oluvchilarda chet tilini o‘rganish muhimligi tushunchasi, chet tilida muloqot qilish, o‘z ustida mustaqil ishlash va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida foydalanish ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolik, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashda, chet tili orqali madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish istagi va xohishida namoyon bo‘ladi.

**Pragmatik kompetensiya** aloqa bilan bog‘liq vaziyatni rivojlantirishga va muloqot samaradorligini oshirishga yordam beradigan strategiyani, masalan, murakkab muloqot sharoitida tin olish, tushuntirish, to‘ldira olish ko‘nikmalarini nazarda tutadi. Pragmatik kompetensiya og‘zaki va yozma muloqotda muvofiq lingvistik vositalarni qo‘llash orqali fikrlarni muntazam ravishda bog‘lash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, og‘zaki yoki yozma nutqda lingvistik signallarni tushunish va talqin qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi diskursiv qobiliyatni o‘z ichiga oladi.

## **XORIJIY TILLARDA MALAKA IMTIHONIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

Xorijiy til ko‘nikma va malakalarning deskriptorlariga talablar nutqning to‘rtta malakasi tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozishni qamrab olgan Yevropa Kengashining “Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash” to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan xalqaro

me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) ga asoslanib olingan. Malaka imtihonini topshirayotgan talabgorning xorijiy tildan bilimi chet tillarni bilishning umumevropa standartiga binoan B2 darajada bo'lishi lozim.

## **1. Til kompetensiyasi talablari**

### **1.1. Nutq kompetensiyasi**

#### **1.1.1. Tinglab tushunish**

Ommabop tanish mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma'nolarini tushuna olish.

O'z mutaxassisligi doirasidagi mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma'nolarini tushuna olish.

Shaxsiy qiziqish yoki kasbga oid kundalik voqealar va dasturlar haqidagi teleradio yangiliklar sekin, biroq ravon gapirilganda ularning asosiy mazmuni va g'oyasini tushuna olish.

Batafsil yozishga yo'riqnomalar yoki ko'rsatmalarni tushuna olish va ularga amal qila olish.

Tanish mavzudagi muhokamaga kirisha olish.

Keng ko'lamli nutq yoki qator murakkab fikrlar bayonini tushunib kuzata olish.

Tanish va notanish kontekstdagi murakkab autentik nutqni tushuna olish.

O'rganilayotgan til egasi bo'lgan so'zlashuvchilarning suhbat yoki munozarasining aksariyat qismini tushuna olish.

Radio, internet va televideniye dasturlari, intervyularning aksariyat qismini tushuna olish.

#### **1.1.2. Gapirish**

##### **Dialog**

Tanish kundalik va boshqa umumiy mavzularda ma'lum darajada o'zida ishonch bilan ma'lumot almasha olish, tekshira olish va tasdiqlay olish.

Muammoni tushuntirib bera olish va uni hal qilish yo'llarini taklif qila olish.

Kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirok eta olish: tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bora olish.

Tanish mavzularda debatlar va muhokamalarda ishtirok eta olish.

Muhokamalar jarayonida mavhum mavzular va masalalarda o'z fikrini ifoda qila olish.

Muhokama yoki suhbat mobaynida o'z g'alar fikrini sharhlay olish.

Batafsil ko'rsatmalarga oid savollarga javob bera olish.

Savollar berib, tegishli sharhlar keltirib, intervyu olib bora olish.

Intervyu yoki maslahat berish mobaynida kerakli ma'lumotlarni bera olish.

Umumiy kundalik yoki mehnat faoliyatiga oid vaziyatlardagi yumushlarni samarali uddalay olish.

Ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar bo'yicha ma'lumot olish va bera olish hamda fikr almasha olish.

Keng miqyosdagi his-tuyg'ular va hissiyotlar, masalan g'amginlik, baxtiyorlik, dilxiralik, mamnuniyat, hayratlanishni ifoda qila olish va ularga javob qaytara olish.

Yo'riqnomalar yoki ko'rsatmalarni tushunib, ularga amal qila olish.

Rasmiy suhbatda, masalan ishga joylashish yoki stependiya olish uchun bo'ladigan suhbatda oldindan kutsa bo'ladigan savollarga javob bera olish.

Yuzma-yuz muloqotda yoki telefon orqali uchrashuv yoki tadbir vaqti va joyini rejalashtira olish.

### **Monolog**

Ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, mantiqiy fikrlar bilan bog'langan taqdimot qila olish.

Tanish vaziyatlar va mavzularni sodda tasvirlab, ular haqida bevosita axborot bera olish.

Qisqa hikoya, maqola yoki muhokama mazmunini qisqacha bayon qila olish.

O'z qarashlarini tushunarli va aniq ifodalay olish.

### **1.1.3. O'qish**

Ixtisoslik sohalarida faktlarga asoslangan murakkab bo'lmagan matnlarni to'liq tushuna olish.

Kundalik va asosiy kasb-hunarga oid hujjatlardagi, masalan, xabarlar, qisqa rasmiy hujjatlardagi tegishli ma'lumotlarni topa olish va tushuna olish.

Gazeta va internet matnlari va boshqa manbalardagi tegishli fikrlarni tushuna olish.

Asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha yozma yo'riqnomalarni tushunib, ularga amal qila olish.

Ommaviy matnlarni muhokama qilishni nazarda tutgan holda asosiy fikrlarini tushuna olish.

### **1.1.4. Yozish**

Shaxsiy va kasbiy kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozib, ularning shoshilinchligi, muhimligi yoki zarurligini ifodalay olish.

Standart formatga asoslangan qisqa kasbga oid hisobotlar yoza olish.

Mehnat amaliyoti tajribasiga oid oddiy hisobotlarni yoza olish.

Ish joyi bilan bog'liq masalalar va vujudga keladigan vaziyatlar bo'yicha oddiy hisobotlar yoza olish.

Rezyume va tavsiya xatlarini yoza olish.

### **1.1.5. Tarjima**

Mutaxassislik bo'yicha ona tilidan chet tiliga va xorijiy tildan ona tiliga og'zaki va yozma tarjima kilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Maxsus terminologik atamalar lug'ati va ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish. Chet tilida leksik, grammatik xodisalarning ona tilidagi muqobillarni topa olish.

Bir xil ma'noni turli xil til vositalar yordamida ifodalash.

## **1.2. Til kompetensiyasi**

### **1.2.1. Fonetik kompetensiya**

Darak, so'roq, bo'lishsiz, buyruq gaplarda ritm va intonatsiyadan foydalana olish, gapni ma'no bo'laklariga ajrata olish.

Taqdimotlar va muhokamalarda ta'kid maqsadida urg'u va intonatsiyadan foydalana olish.

Chet tilining asosiy variantlarini ajrata olish.

### **1.2.2. Leksik kompetensiya**

Kontekstda professional so'z va terminlardan foydalanish, kasb-hunarga oid lug'at boyligidan faol foydalana olish.

O'z ixtisosligi doirasi va undan tashqarida so'z tuzilishi elementlari (qo'shma so'zlar, prefikslar, suffikslar, so'z o'zagi)ni tanishi va tushuna olishi.

O'z mutaxassisligiga oid leksikani ajrata olishi va qo'llay olishi.

O'z ixtisosligi doirasi va boshqa sohalarda so'z tuzilishi unsurlarini (qo'shma so'zlar, prefikslar, suffikslar, so'z o'zagi) tushuna olishi.

### **1.2.3. Grammatik kompetensiya**

Kommunikativ maqsadlarda zarur bo'ladigan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini taniy olish va ulardan to'g'ri foydalana olish. Ma'ruzani ixtisoslashtirilgan holda tushunish uchun uni uyg'unlik va alokadorlik jihatidan tahlil qilish.

## **MALAKAVIY IMTIHON SAVOLLARINING MAZMUNI VA TARTIBI**

Malaka imtihoni uch qismdan iborat va 100 ballik tizimda 80 daqiqa davomida amalga oshiriladi. Izlanuvchi savollar to'plami mavjud biletni tanlaydi va tayyorgarlik ko'radi. Imtihan shakllari:

1. Test sinovlari.
2. Yozma imtihan.
3. Og'zaki imtihan

**Test sinovlari** (maksimal ball 30 ga teng, ajratilgan vaqt 30 daqiqa).



Test sinovlari talabgorlarning leksik va grammatik bilimini baholashga yo'naltiriladi. Har bir testda 4 ta muqobil variantlar beriladi.

Sinov 15 ta testdan iborat. Har bir to'g'ri bajarilgan test 2,0 ball bilan baholanadi.

**Yozma imtihon** (maksimal ball 30 ga teng, ajratilgan vaqt 40 daqiqa).

Yozma imtihonga test sinovlaridan kamida 55% to'g'ri ishlagan izlanuvchilar kiritiladi (kamida 16 ball). Yozma imtihon berilgan mavzu yuzasidan 250 ta so'zdan kam bo'lmagan tahliliy bayon yozish bilan amalga oshiriladi;

**Og'zaki imtihon** (maksimal ball 40 ga teng, ajratilgan vaqt 10 daqiqa).

Og'zaki imtihon uchta shaklda bo'lishi mumkin:

- 1) ilmiy matnni o'qish, ona tiliga tarjima qilib gapirib berish;
- 2) gazeta yoki ommapob jurnal maqolasini o'qib chiqish va gapirib berish;
- 3) talabgorning doktorlik dissertatsiyasi asosiy mazmunini xorijiy tilda bayon qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

#### ***Ingliz tili***

1. Абдалиева В.А. Английский язык для естественных факультетов. Самарканд, 2010.
2. Бакиева Г.Х., Ирискулов М.Т., Ким Н.Н. English for Professional Development. - Ташкент, 2011
3. 1. Бокиева ГД, Рашидова Ф.М ва бошқалар. Scale up. Student's Course 1, 2, 3.-Т: Фофур Фулом, 2015.
4. Гаппаров М., Косимова Р. Инглиз тили грамматикаси. - Тошкент, 2008.
5. Ирискулов А.Т., Шатунова А.С. English Phonetics.- Ташкент, 2011.
6. Muminov O.M. and others. Practical Course in Translation.- Tashkent,2010
7. Sattarov T., Qurbanova N. English. - Т.: Адолат, 2007.
8. Юсупов У. Инглиз тили грамматикасидан универсал қўлланма. - Т.: Akademnashr, 2011.
9. Council of Europe (2020), *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*, Council of Europe Publishing, Strasbourg.
10. Dr. Lin Lougheed (2016), Barron's IELTS, Barron's Educational Series, Inc. 250 Wireless Boulevard Hauppauge, New York 11788.
11. Barron's writing for the IELTS, 2016
12. Advanced everyday English Steven Collins, (2017)
13. The Official Cambridge Guide to IELTS by Pauline Cullen, (2015).

#### **Internet saytlari**

1. [mww.gov.uz](http://mww.gov.uz) Ўзбекистан Республикаси ҳукумат портали.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) Ўзбекистан Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

3. [www.better-english.com](http://www.better-english.com) - Инглиз тилини онлайн ўқитиш
4. [www.exerciselist.com](http://www.exerciselist.com) - Грамматик машқлар ва топшириклар
5. [www.uzeducation.com](http://www.uzeducation.com) - Таълим тўғрисидаги веб-сайт
6. [www.uzbekistantoday.uz](http://www.uzbekistantoday.uz) - Uzbekistan Today газетасининг инглиз тилидаги сайти
7. [wtnv.on-line-literamre.com](http://wtnv.on-line-literamre.com) - Классик адабиёт, буюк шахсларнинг шеърлари ва сўзлари.
8. [www.teachingenglish.org.uk](http://www.teachingenglish.org.uk)- Teaching English British Council
9. [www.onestopenglish.com](http://www.onestopenglish.com)- one stop english
10. [www.businessenglishonline.net](http://www.businessenglishonline.net)- Macmillan Business English
11. [www.teachertrainingvideos.com](http://www.teachertrainingvideos.com)- Teacher training Videos
12. [www.bbc.co.uk/schools/teachers](http://www.bbc.co.uk/schools/teachers)- BBC news
13. [www.Grammarly.com/Grammar](http://www.Grammarly.com/Grammar) -English Grammar

### **Adabiyotlar ro'yxati**

#### *Nemis tili*

1. Billina Anneli Lesen und Schreiben B2.-München: Hueber Verlag, 2013.
2. Breitsameter A., Glas-Peters S., Pude, A. Menschen B2. –München: Hueber Verlag, 2014
3. Maik Philipp, Lese- und Schreibunterricht. A. Franke Verlag. Tübingen, Deutschland, 2013.
4. Michaella Perlmann-Balme u.a. Sicher! Kurs- und Arbeitsbuch B2,1 B2,2. München: Hueber Verlag, 2014.
5. Ute K.,Helen S., Tanja S., Ralf S. Aspekte neu-Mittelstufe Deutsch B2, Kursbuch mit Audio-CD., München: Klett Verlag, 2014.
6. Ismailov Yusuf, Karimov Schawkat. Wörterbuch Deutsch – Usbekisch, Usbekisch – Deutsch. 6-Auflage. AKADEMNASHR. Taschkent. 2023.

### **Adabiyotlar tilidan adabiyotidan ro'yxati**

#### *Fransuz tili*

1. А. Маматов, М. Мирхолиқов ва А. Асқаров. Француз тилининг амалий грамматикаси. Тошкент 2015.
2. И.Н. Попова, Ж.А. Казакова. Французский язык. Cours pratique de grammaire française. М.: ООО «Нестор Академик Паблишерз», 2005. -480 с.
3. Annie Bertet, Cathrine Hugo, Veronique M. Kizirian, Beatrix Sampsonis, Monique Waendendries. Alter ego. Méthode de français 1. A2. B1. Hachette, Paris, 2007.
4. Elode Heu, Catherine Housse, Emilie Kasazian. **SAISON** 1. Les Editions Didier, Paris 2018.

5. Anouchka De Oliveira, Anneline Dintilhac. **SAISON 2**. Les Editions Didier, Paris 2018.
6. Isabelle Cros, Caroline Mraz. **SAISON 3**. Les Editions Didier, Paris 2018.
7. Abbadie C et d'autres. L'expression française écrite et orale. Paris, 2002.
8. Claire Miquel. Grammaire en dialogues. Michele Boulares. Paris, 2005
9. Hirschsprung N., Tony Tricot, Cosmopolite 3 B1, Méthode de français, Hachette livre, Vanves Cedex, France, 2018.
10. Dauda P., Giachino L., Gehin S., Génération B1, Méthode de français, Les éditions « Didier », Paris, 2016.
11. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 1. France, 2013.
12. Nichanov M., Yakoubov J., Karimova N. Grammaire pratique de la langue française. Méthode de français pour licence. Morphologie. Partie Théorique — Tachkent, 2020.
13. Yakoubov J.A., Karimova N. Grammaire pratique de la langue française. Méthode de français pour licence. Syntaxe. Cahier d'Activité — Tachkent, 2020.
14. J. Yakoubov, R. Bobokalonov, N. Karimova. N. Grammaire communicative. Manuel pour licence. Morphologie. I Partie Théorique — Educations universitaires européennes. Republic of Moldova Europe. - ISBN- 978-38416-1917-4. 2022.
15. J. Yakoubov, R. Bobokalonov, N. Karimova. N. Grammaire communicative. Manuel pour licence. Syntaxe. I Partie Théorique — Educations universitaires européennes. Republic of Moldova Europe. ISBN- 978-620-43635-8. 2022.

### **Axborot manbalari**

1. <http://gov.uz/>
2. <http://www.edu.uz/>
3. <http://www.ziyonet.uz/>
4. [www.meindeutschbuch.de](http://www.meindeutschbuch.de)
5. [www.duden.de](http://www.duden.de)
6. [www.tatsachen-über-deutschland.de](http://www.tatsachen-über-deutschland.de)